

**TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARINI SAMARALI TASHKIL  
ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Ibragimova Shaxnoza Tulqinovna

Profi university nodavlat oliy ta'lim muassasasi Navoiy filiali  
o'qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada mustaqil ta'limni tashkil etish va unga qo'yiladigan talablar to'g'risida ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri mustaqil ta'limni samarali tashkil etish ekanligi, mazkur yo'nalishda bugungi kunda mavjud bo'lgan muammolar va mustaqil ta'lim olishni tashkil etishning yangi usullarini yaratish borasida qator taklif va shu maqsadda amalga oshirilgan qator uslubiy tajribalar misol tariqasida yoritib berilgan.

**EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS' INDEPENDENT LEARNING  
AS A PEDAGOGICAL PROBLEM**

**ЭФФЕКТИВНАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ  
СТУДЕНТОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

**Abstract** This article provides information on the organization of independent education and its requirements. Also, one of the best ways to increase the creative potential of students in higher education institutions is to effectively organize independent education, the problems that exist today in this direction, and a number of proposals regarding the creation of new methods of organizing independent education. a number of methodological experiments carried out for this purpose are highlighted as examples.

Kalit so'zlar Motivatsiya, muammoli ta'lim uslubi, ijodiy muhit, kazus, pedagogika, mustaqil ta'lim, o'quv jarayoni, ijodkorlik, qobiliyat.

**Key words** Motivation, problem-based learning method, creative environment, case study, pedagogy, independent education, educational process, creativity, ability.

Davlat ta'lim standarti talabiga binoan bilimlarni mustaqil ravishda izlanib o'rghanish vazifasi hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shu sababli fanlarning nazariy asoslarini amaliy ko'nikma darajasida o'zlashtira olishda mustaqil ta'limning roli beqiyosdir. Ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbivaviy jarayon, umumiyl o'rta ta'lim tizimi ta'lim jarayonidan anchagina farq qiladi. Oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayoni umumiyl o'rta ta'lim tizimidagidan farqli o'laroq, har kuni beriladigan uy vazifalari va o'tilgan materialni takrorlash yo'q. Ikkinchidan, o'quv auditoriyalaridagi ma'ruza va mashg'ulotlar qanchalik yuqori darajada tashkil etilmasin, kunlik bilimning nazoratiga imkoniyat juda kam. Talabalar bilimining sifati, ularning mustaqil ishlashiga bevosita bog'liq. Talabaning mustaqil ishi professor-o'qituvchi tomonidan aniqlaniladi va tegishli ko'rsatmalar berilib, mustaqil ishning bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Pedagogika yo'nalishida talim olayotgan OTM talabasining ijodiy salohiyatini yuksaltirishning eng yaxshi usullaridan biri bu – mustaqil ta'lim hisoblanadi. Bu usul talabani mavjud ilmiy muammoni shakillantirish, ilmiy va amaliy yechim yo'lini ishlab chiqish, yechim bo'yicha optimal natijaga erishish, isbotlash kabi ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mustaqil ta'lim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil ta'lim olish talabalarni o'quv mashg'ulotida olgan bilimlarini hayotda namoyon etish, o'qituvchi ishtirokisiz mustaqil qaror qabul qilishiga o'rgatadi. Mustaqil talimni to'g'ri shakillashtirish har qanday o'quv predmetini o'zlashtirish imkoniyatini oshirishi, qaysidir ma'noda talabani bilim, malaka, ko'nikma olishiga undashi, motivatsiyasini oshirishi lozimdir.

Psixolog olimlar o'z ilmiy tadqiqotlarida inson faoliyatini o'rganish, tadqiq qilish, uning mohiyatini ochib berish muammolari bilan shug'ullaniganlar. Inson faoliyatining mohiyatini motiv, maqsad, shart-sharoit, harakat, jarayon kabi faoliyat strukturasini tashkil etuvchi elementlarni o'rganish orqali anglash mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, subyektning verbal harakatlari – bu o'quv ko'nikmasini tashkil etuvchi harakatlardir. Aslida, o'quv faoliyati, o'quvchi-talabalarning o'quv topshiriqlarini mustaqil bajarish jarayonida bilim egallahslariga qaratiladi. Bu ularga mazkur bilimlarning hosil bo'lish shart-sharoitlarini ham anglash imkonini beradi.

Psixologlar harakatni amalga oshirish usuli sifatida “jarayon” tushunchasini kiritganlar. Agar jarayonlar anglab bajarilsa, u holda “ko'nikma” haqida gap boradi. Bu esa, amaliyotchiga bakalavriat va magistratura bosqichlarida olgan bilim, malaka va ko'nikmalarga mustaqil ravishda yondashishiga imkoniyat yaratadi. Bu borada uzlusiz ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblangan – oliy ta'limdagi mustaqil ta'lim o'quv darslarining o'rni beqiyosdir, albatta.

Mustaqil ta'limda ajratilgan mavzularga tajriba asosida, ya'ni, laboratoriya ishlari va eksperimentlarni mustaqil ravishda rejalashtirish, ularni amalga oshirishga ijodiy yondashish nazariy va amaliy jihatdan yondashishga nisbatan qiyinchiliklar bilan amalgalashmoqda. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun esa asosiy e'tiborni talabalar mustaqil ta'limini rivojlantirish, unga sistematik yondashish, ta'lim uzviyligini ta'minlagan holda qarash muhim ahamiyatga ega.

O'tkazilayotgan pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ixtisosliklar bo'yicha malakali bakalavriat bosqichi mutaxassislarini tayyorlashda asosiy e'tiborni talabalarning o'quv jarayonida aynan mustaqil ta'lim mashg'ulotlarida eksperimental malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, ratsionalizatorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda sistematik yondashish o'ziga xos istiqbolli natijalarni keltirib chiqaradi va bo'lajak o'qituvchilarni sifatli tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Har haftaning oxirgi kunida, ta'lim oluvchi hafta davomida bajargan ishlarni sarhisob qilib, o'zi mustaqil tuzgan rejaning bajarilishini tekshirib chiqishi kerak. Bunday nazoratdan so'ng, talaba, o'zi bajargan ishlarga haqqoniy yondoshsa, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish ancha oson kechadi.

Talabalarga o'quv jarayonining amaliy, labarator va seminar mashg'ulotlarida turli kazuslar yechimi, o'quv-texnologik vazifalarni yuklanishi, muammoli materiallarni yechimini topish orqali uslubiy yangiliklar kiritilgan kichik mustaqil ishlarni belgilash

bugungi kunda o‘z samarasini bermoqda. Ta’lim berishning innovatsion uslublarini yaratish bilan birqalikda, mustaqil ta’lim olishning ham mavzuviy, ham uslubiy yondashuvini talabalarga erkin yoritish imkonini berish samaraliroq hisoblanadi.

Mustaqil ishlar konkret belgilangan standartlardan xoli bo‘lishi, ularning mazmunan va usluban qolipga solinishi mustaqil ishlarni plagiat asosida amalga oshishiga olib keladi. Talaba mustaqil ish bajarishi uchun eng avvalo tanlov asosida mavzuni o‘zi tanlashi, albatta o‘qituvchi tomonidan ishning borishi yuzasidan tavsiya va maslahatlar olishi lozim. Mustaqil ish hajmi mavzuning oddiy va murakkabligidan kelib chiqishi, unga turli ilovalarni majburiy tarzda kiritilmasligi, yoritilish erkinligi, (talaba hohlasa ilmiy rasm sifatida chizib bersin) muayyan labaratoriya, tajriba natijasiga tayanilishi lozim. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllanmaganligi, o‘quv jarayonida talabalarda tashkilotchilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Shunday ekan, oliy ta’lim tizimida mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o‘quv jarayonini amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirish, bu borada o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Xulosa o‘rnida, talabaning psixologik, pedagogik, metodik adabiyotlar, dissertatsiya tadqiqotlarini tahlil qilishi, uning bilim darajasini sinash natijalari shuni ko‘rsatmoqdadiki, mustaqil ishlarni tashkil qilish uchun quiydagi vazifalarini oldinga qo‘yish talab etiladi:

1. Mustaqil ishlarda talabalarga qiziqish va unga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.
2. Talabalar mustaqil talim faoliyati bo‘yicha ko‘nikma va mahoratga ega bo‘lishlariga erishish.
3. Talabalarga o‘zlarining mustaqil ishlarni kamchiliklarni bartaraf etishlarida o‘z vaqtida yordam ko‘rsatish.
4. Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish uchun zaruriy uslubiy materiallarni ishlab chiqish.

Mustaqil talim talabalarni samarali kasbiy mahoratini rivojlantirish darajasini oshiradi va bo‘lajak mutaxassisning shaxsiy xususiyatlari sifatida mustaqilligini shakllantiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Azizzodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo’llanma.-T.; 2013yil.
2. Yoldoshev J.G’. Zamonaviy dars. Malaka oshirish; muammolar, izlanishlar, yechimlar. A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM.-T.; 2017yil.

3. Muslimova, A.F. O'z-o'zini takomillashtirishga va ijodiy o'zini namoyon qilishga intilishlarni rivojlantirish / A.F. Muslimova // O'rta maxsus kasb ta'limi. - 2010 yil - № 4.

4. Закиров, Д. У. (2020). ЭКОЛОГИК ТАЪЛИМДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМДАН УНУМЛИ ФОЙДАЛАНИШНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ. Биология ва экология электрон журнали, 4(2).